

_____ - sonli Auto light qarz ajratish shartnomasi
(Birlamchi bozordan qarz hisobidan transport vositasi/elektromobil sotib olish bo‘yicha)

_____ shahar

Chet el kapitali ishtirokidagi "**Hamkorbank**" aksiyadorlik tijorat banki nomidan
yildagi _____ - sonli ishonchnama asosida harakat
qiluvchi bankning _____ boshqaruvchisi/boshlig‘i _____,
bundan buyon matnlarda "**Bank**" deb nomlanadi, birinchi tarafdan, fuqaro _____,
bundan buyon matnda "**Qarz oluvchi**" deb nomlanadi, ikkinchi tarafdan, fuqaro _____
bundan buyon matnda "**Birgalikda qarz oluvchi/BQO**" deb nomlanadi,
uchinchini tarafdan, hammalari birgalikda "**Taraflar**" deb nomlanadi, ushbu shartnomani
quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti.

1.1. Mazkur shartnomaga muvofiq Bank birlamchi bozordan transport vositasini sotib olish
uchun Qarz oluvchiga qarz berish, Qarz oluvchi esa qarzdan aniq maqsadli foydalanish, ya’ni
birlamchi bozordan transport vositasini sotib olish, qarzni Bankka qaytarish va pul mablag‘laridan
foydalanganlik uchun foiz to‘lash majburiyatini oladi.

1.2. _____ va Qarz oluvchi o‘rtasida tuzilgan hisob-shartnomaga asosan
transport vositasini sotib olish uchun Kreditor Qarz oluvchiga ushbu Shartnoma shartlari asosida
Auto light qarz (keyingi o‘rinlarda – qarz) beradi. Qarz oluvchi esa kredit berishning umumiy
qidalariga (maqsadli xarakteri, moddiy ta’minlanganligi, muddatiligi, qaytariluvchanligi va
to‘lanuvchanligiga) rioya etgan holda qarzdan foydalanadi.

2. Qarz miqdori, shartlari va hisob-kitob qilish tartibi.

2.1. Qarz oluvchiga _____ (_____) so‘m miqdorida,
_____ (_____) oy muddatga, yillik _____ %
(_____) foiz to‘lash sharti bilan _____ sanasiga qadar qarzdan
aniq maqsaddan foydalanish uchun qarz ajratiladi.

2.2. Qarzni qaytarish shartnomaning ajralmas qismi bo‘lgan qaytarish jadvali (1-ilova) asosida
amalga oshirilgan holda foizlar ushbu shartnomada belgilangan nominal stavkada qarz qoldig‘iga
nisbatan kunlik hisoblab boriladi.

2.3. Qarz to‘lovlarini qaytarish qarz oluvchi/BQOning istagiga ko‘ra, avtoto‘lov xizmati, bank
kartasi, naqd pul, pul o‘tkazish yo‘li bilan va qonunchilik hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa
to‘lov usullari bilan amalga oshiriladi. Bunda, kelib tushgan mablag‘lar agar mablag‘ kredit
qarzdorligini qaytarish grafigi bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikni (tani, fozi) qoplash uchun
yetarli bo‘lsa birinchi navbatda neustoyka, muddati o‘tgan qarz foizi, muddati o‘tgan qarz tani,
muddatli qarz foizi so‘ngra muddatli qarz tanini so‘ndirishga yo‘naltiriladi. Agar pul mablag‘i
yetarli bo‘lmasa qonunchilikda belgilangan tartibda.

2.4. Agar amalga oshirilgan to‘lov summasi qarz oluvchiga ajratilgan kredit bo‘yicha
majburiatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda
qoplanadi:

- asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik va muddati o‘tgan foiz to‘lovlari mutanosib
ravishda;
- joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;
- neustoyka(jarima, penya);
- kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari.

2.5. Mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirishiga qadar, Qarz oluvchi o‘zining omonat
xisobvarag‘iga transport vositasi qiymatining kamida _____ % miqdoridagi o‘z
Qarz oluvchi _____ BQO _____ Bank

ulushini shakllantiradi. Ushbu pul mablag‘lari keyinchalik qarz mablag‘lari bilan birga sotuvchining bank xisob-raqamiga o‘tkaziladi. Qarz oluvchi tomonidan ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) yoki realizatsiya qiluvchi (rasmiy diler) tashkilotning bankdagi hisobvarag‘iga transport vositasi qiymatining ichki tartibda belgilangan miqdorda o‘tkazilgan(topshirilgan) hujjati(kvitansiya, to’lov topshiriqnomasi) boshlang‘ich badal sifatida ham qabilinadi.

3. Taraflarning majburiyatları.

3.1. Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining majburiyatları:

3.1.1. Qarz va unga hisoblangan foizlarni ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan qaytarish jadvalida (1-ilova) belgilangan muddatlarda to‘liq to‘lash hamda muddatlilik, to‘lovilik, maqsadlilik va ta’minlanganlik tamoyillariga rioya etish;

3.1.2. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi(BQO) yashash manzilini, telefon raqamlarini (uyali, uy, ish), elektron pochta manzilini, ijtimoiy tarmoqlardagi pochta manzillari (Telegram, WhatsApp, IMO va boshqalar) haqidagi haqqoniy ma’lumotlarni taqdim etish. Ushbu manzillar orqali olingan har qanday ma’lumot Bank uchun qonuniy kuchga ega;

3.1.3. Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi(BQO)ning ish joyi, yashash joyi, familiyasi va ismi o‘zgarganda, telefon raqamlari, elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoqdagi manzillari o‘zgarganda yoki mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan boshqa holatlar to‘g‘risida yozma shaklda yoki Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchi(BQO) uchun maqbul bo‘lgan boshqa aloqa kanallari orqali 5(besh) kalendar kun ichida Bankka xabar berish. Ushbu talab bajarilmasligi oqibatida kelib chiqqan salbiy holatlarga javobgar hisoblanadilar; Sotib olinayotgan transport vositasi realizatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan yetkazib berilguniga qadar, transport vositasi bilan bog‘liq bo‘lgan hamda mazkur kredit shartnomasi bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday hatarlaridan (jumladan cheklanmagan holda kredit qaytmaslik hatarlari/transport vositasini nobud bo‘lishi, shikastlanishi, uchinchi shaxslarning g‘ayriqonuniy harakatlari oqibatida yo‘q bo‘lishi) kreditning to‘liq muddatiga va to‘liq qiymatiga sug‘urta qilidirish va sug‘urta polisini Bankka taqdim qilish;

3.1.4. Transport vositasining realizatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan berilgan yetkazib berish shartnomasida qo‘rsatilgan qiymat Bank tomonidan to‘lik to‘lab berilib, Qarz oluvchi tomonidan transport vositasi qabul qilingan vaqtidan boshlab 20 (yigirma) kalendar kun davomida avtomototransport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazganligi to‘g‘risidagi guvohnomani Bankka taqdim etish;

3.1.5. Garov mulkiga shikast yetkazilgan, yaroqsiz holga kelgan, yo‘qolgan taqdirda zudlik bilan (1 ish kuni ichida) Bankka xabar berish va garov mulkini 10 (o‘n) kun ichida yuqori likvidli boshqa mulk ta’minotiga almashtirish;

3.1.6. Qarzni qaytarish jadvaliga nisbatan ortiqcha to‘langan mablag‘ kelgusi davrlarda so‘ndirilishi rejalashtirilgan bo‘lsa, u holda to‘lovni amalga oshirishdan 3(uch) kun oldin Bankka bu haqida yozma murojaat qilish;

3.1.7. Qarz oluvchi hamda BQO bank kartasini bankning “Avto-to‘lov” xizmatiga ulash;

3.1.8. Mazkur shartnomasi rasmiylashtirilguniga qadar va/yoki rasmiylashtirilganidan so‘ng qarz oluvchi o‘ziga nisbatan vakolatli organning tegishli qarori bilan jinoyat ishi bo‘yicha Qarz oluvchi gumonlanuvchi/ayblanuvchi sifatida jalb qilingan taqdirda zudlik bilan bu haqida (1 ish kuni ichida) Banka xabar berish;

3.1.9. Mazkur shartnomasi bo‘yicha Qarz oluvchining majburiyatları amalda bo‘lib turgan paytda boshqa kredit tashkilotlaridan kredit(mikroqarz) olmaslik, kafil shaxs yoki garant sifatida huquqiy munosabatlarga kirmaslik, qarz, shuningdek, pul majburiyatlarini bermaslik

3.1.10. Ushbu shartnomasi va qonunchilikka asosan boshqa majburiyatlarini bajarish.

3.2. Bankning majburiyatları.

3.2.1. Qarz oluvchining huquq va majburiyatları to‘g‘risida, jumladan qarz ajratishga oid barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda to‘liq axborot berish;

3.2.2. Qarz oluvchi nomiga ssuda hisob raqamlarini ochish va mazkur shartnomaning 3.1.3-bandidagi majburiyatlar to‘liq bajarilganidan keyin 3 (uch) bank ish kuni ichida qarz ajratish;

3.2.3. Qarz oluvchini qarzni muddatidan ilgari undirish holati va sabablari haqida oldindan

xabardor qilish;

3.2.4. Qarz oluvchining so‘rovi Bankda ro‘yxatga olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida Qarz oluvchi tomonidan berilgan ariza va Qarz oluvchiga qarz berilganligini tasdiqlovchi hujjatni hamda bir ish kuni ichida shartnomaga bo‘yicha Qarz oluvchining majburiyatlari to‘liq bajarilganini tasdiqlovchi hujjat taqdim etish;

3.2.5. Qarz oluvchi majburiyatlarni bajarilmaslik sabablari, holati, muddati, summalar, tarkibi haqida so‘rash, shuningdek majburiyatlar buzilgani uchun neustoyka qo‘llanishi natijasida xarajatlar ortishi haqida ogohlantirish;

3.2.6. Muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, Qarz oluvchi bilan har qanday aloqa usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki boshqa usullardan foydalanib, Qarz oluvchiga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida xabar berish;

3.2.7. Mazkur shartnomaning 3.1.7-bandiga muvofiq Qarz oluvchi/BQOning arizasi mavjud bo‘lmagan holda, qarzning joriy to‘lovi uchun qaytarish jadvalida belgilangan summaga nisbatan ko‘p mablag‘ kelib tushgan taqdirda, ushbu mablag‘ning ortiqcha qismini qarzning asosiy qismini so‘ndirishga yo‘naltirish hamda kelgusi ish kundan qoldiq summaga nisbatan foiz hisoblash;

3.2.8. Qarz oluvchining so‘rovi olinganidan so‘ng bir ish kuni ichida unga quyidagi axborotlarni yozma shaklda oyda bir marta bepul taqdim etish: limit, qarz bo‘yicha to‘langan pul mablag‘lari summasi, asosiy summa bo‘yicha qarz qoldig‘i, navbatdagi to‘lovlardan miqdori, tarkibi va muddatlari (to‘lovlardan miqdori), qarzni muddatidan oldin qisman yoki to‘liq so‘ndirish istagi bildirilgan taqdirda, to‘lash lozim bo‘lgan summalar miqdori, muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik miqdori va tarkibi, kelib tushayotgan pul mablag‘lari qarzni asosiy qismini so‘ndirishga yo‘naltirilishi haqida axborotlar;

3.2.9. Qarz oluvchi shartnomaga bo‘yicha barcha majburiyatini to‘liq bajargan sanadan boshlab uch ish kuni ichida garov mulkini taqiqdan chiqarish bo‘yicha notariusga xat berish hamda garov mulkiga nisbatan Bank huquqlari haqidagi yozuvni Garov reyestridan o‘chirish;

3.2.10. Shartnomada nazarda tutilgan qarzni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, bu haqda tegishli qaror qabul qilingan sananing ertasidan kechikmasdan Qarz oluvchiga yozma xabarnoma yuborish;

3.2.11. Qarz bo‘yicha foiz stavkasi o‘zgarganda yoki mazkur shartnomaning 3.2.8-bandida belgilangan vaziyat yuz bergan taqdirda, qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirish va Qarz oluvchiga taqdim etish. Bunda, dastlabki qaytarish jadvali kuchini yo‘qotadi va taraflar uchun yangi qaytarish jadvali majburiy hisoblanadi;

3.2.12. Ushbu shartnomaga va qonunchilikka asosan boshqa majburiyatlarni bajarish.

4. Taraflarning huquqlari.

4.1. Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining huquqlari:

4.1.1. O‘z huquq va majburiyatlari to‘g‘risida, shu jumladan qarz berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar haqida ishonchli hamda amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki me’yoriy hujjatlaridagi o‘zgarishlar haqida to‘liq axborot olish;

4.1.2. Shartnomada tuzilgan kundan e’tiboran ikki hafta ichida Bankni yozma ravishda xabardor qilib qarzning foydalanilmagan qismidan voz kechish. Bunda, voz kechish kunigacha qilingan xarajatlar (foizlar) Qarz oluvchi/BQO zimmasida qoladi;

4.1.3. Qarzni muddatidan oldin qaytarishi, qarz uchun foizlar qarz to‘liq qaytarilgan kungacha mazkur shartnomaning 2.1-bandida ko‘rsatilgan foiz stavkaga muvofiq hisoblanadi;

4.1.4. Qarz ajratish va hisob-kitoblar bo‘yicha amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki me’yoriy hujjatlaridagi o‘zgarishlar haqida Bankdan ma’lumot olish;

4.1.5. Bankdan majburiyatlarning o‘z vaqtida va lozim darajada bajarilishini talab qilish, majburiyatlarning bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplashni talab qilish;

4.1.6. Qarz to‘lovlari masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda to‘lash;

4.1.7. Qarz to‘lovlari shaklini hamda qarzni qaytarish turini (differensial yoki annuitet), shuningdek sug‘urta yoki baholash xizmatlarini mustaqil tanlash;

4.1.8. Ushbu shartnomaga va qonunchilikka asosan boshqa huquqlardan foydalanish.

4.2. Bankning huquqlari.

4.2.1 Qarz oluvchi shartnoma tuzilgan kundan e'tiboran bir ikki xafta qarzdan foydalanmagan taqdirda, shartnomani bekor qilish haqida ikkinchi taraflarni yozma ravishda xabardor etish orqali shartnomani bir taraflama bekor qilish;

4.2.2 Qarz berish va shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida va lozim darajada bajarishni talab qilish, zarur hujjatlarni Qarz oluvchi/BQO dan so'rab olish;

4.2.3 Taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyligiga shubha tug'ilganida, monitoring o'tkazish maqsadida, shuningdek muddati o'tgan qarzdorliklar yuzaga kelgan taqdirda, Qarz oluvchi/BQOlarga qo'ng'iroq qilish yoki yozma murojaat berish;

4.2.4 Garov mulkining holati va saqlanishi bo'yicha tekshiruvlarni amalga oshirish;

4.2.5 O'zaro muzokalaralarni (bayonnomma shaklida, telefon qo'ng'iroqlari, audio, video va boshqa istalgan usullarda) yozib olish, shuningdek ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish hamda murojaatni tasdiqlash uchun ushbu dalilni ishlatish;

4.2.6 Qarz oluvchining shartnomaviy majburiyatlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, har qanday qonuniy choralarни ko'rish, jumladan Qarz oluvchi/BKOning har qanday mol-mulkidan majburiy ravishda undirish;

4.2.7 Qarz oluvchining joriy yoki muddati o'tgan majburiyatlari (qarzlari)ni so'ndirish maqsadida, mablag'larni quyidagi usullar yordamida hisobdan chiqarish:

- Qarz oluvchi/BQOning har qanday banklarda va boshqa moliya muassasalaridagi hisobvaraqlariga akseptsiz to'lov talablarini qo'yish;

- Qarz oluvchi/BQOning Bankdagi bank hisobvaraqlarini, bank kartalarini to'g'ridan-to'g'ri debetlash yo'li bilan.

4.2.8. Qarz oluvchi va _____ bilan 20__ yil ____ kungi №_____ -sonli shartnomaga asosan ishlab chiqaruvchi korxona yoki rasmiy dillerining yoki realizatsiya qiluvchi korxona, tashkilotga so'rov jo'natish orqali avtotransport vositasi haqidagi ma'lumotlarni aniqlash/olish;

4.2.9. Qarz oluvchining yozma roziligi bilan kredit hisobiga olinayotgan avtotransport vositasini garovga oluvchi garov narsasi va garov huquqi haqidagi kerakli ma'lumotlarni "Garov Reyestri" elektron saytiga mustaqil kiritadi;

4.2.10. Ushbu shartnoma va qonunchilikka asosan boshqa huquqlarga ega bo'lish.

5. Taraflarning javobgarligi.

5.2. Qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchining javobgarligi:

5.1.1. Asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda, Bankka butun kechiktirilgan davrda kechiktirilgan to'lovlар uchun mazkur shartnomaning 2.1.-bandida belgilangan foiz stavkasining 1,5 baravari miqdorida oshirilgan foiz to'laydi.

5.1.2. Asosiy qarz o'z muddatida to'lamagan taqdirda, to'lov kechikkan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning **0.2%** foizi miqdorida hamda qarz foizini o'z muddatida to'lamagan taqdirda, to'lov kechikkan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning **0.2%** foizi miqdorida Bankka penya to'laydi.

5.1.3. Ushbu shartnomaning 3.1.4-bandı talablarini bajarmaganida Bankka har bir muddati o'tkazilgan kunga shartnoma summasining 0,1% miqdorida, lekin bazaviy hisoblash miqdorining besh barobaridan oshmagan miqdorida penya to'laydi.

5.2. Bankning javobgarligi.

5.2.1. Qarz berish majburiyatini bajarmaganida yoki o'z vaqtida bajarmaganida Qarz oluvchiga kechiktirilgan to'loving har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi.

5.2.2. Ushbu shartnomaning 3.2.9-bandidagi majburiyatlarini bajarmasa, har bir kun uchun garov qiyomatining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi.

5.2.3. Shartnoma bo'yicha hisoblangan neustoykani to'lash/ixtiyoriy to'lash, taraflarni shartnomada ko'rsatilgan o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi. Shuningdek, ikkinchi tarafni majburiyatlar bajarilmaganligi sababli tegishli choralar qo'llash huquqidан mahrum

qilmaydi.

5.2.4. Qarzdorlik bo'yicha hisoblangan foizlar va neustoykalarning eng ko'p summasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan miqdordan oshib ketmasligi lozim.

6. Shartnomani bekor qilish asoslari.

6.1. Qarz oluvchi(BQO)ni Bank qarz ajratishdan avval mavjud bank kartalarini "Avto-to'lov" xizmatiga ulash majburiyati haqida ogoxlantirishi lozim.

6.2. Qarz oluvchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.1.9-bandi ijrosi ta'minlamagan taqdirda, bank qarz berishni rad etishga haqli.

7. Qarz ta'minoti.

7.1. Qarzning asosiy ta'minoti bank tomonidan berilayotgan qarz evaziga sotib olinayotgan transport vositasi hisoblanadi. Transport vositasi garovga qo'yilishidan avval shartnomaning 3.1.5.-bandiga asosan Qarz oluvchi hisobidan sug'urtalanib, sug'urta shartnomasi va polisi Bankka taqdim etiladi.

7.2. Qarz hisobiga sotib olinadigan transport vositasi notarial garov shartnomasi orqali yoki Bank tomonidan garovga olish yo'li bilan oddiy yozma shaklda tuzilishi mumkin. Har ikki holatda ham garov mulki bo'yicha garov reyestriga yozuvlar kiritiladi va garov mulkiga nisbatan taqiq qo'yiladi. Bunda, garov mulki bo'yicha Bank tomonidan garov reyestriga yozuvlar kiritiladi va garov mulkiga nisbatan taqiq qo'yiladi.

7.3. Bank qarz bo'yicha tuziladigan garov shartnomasida bankning garov ta'minotiga qo'yilgan talablardan kelib chiqqan holda qarz oluvchining qarzning qoplanmagan qismidan ortiq summada garov ta'minoti summasini kamaytirish huquqini, shuningdek garov ta'minotini kamaytirish tartibi va usullarini aks ettirishi shart.

8. Shartnomaning amal qilish muddati, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi hamda boshqa qoidalar.

8.1. Shartnoma taraflar imzolagan kundan e'tiboran kuchga kiradi va taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlariga qadar amalda bo'ladi.

8.2. Shartnoma shartlarini o'zgartirish yoki bekor qilish qo'shimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi. Shartnomaga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda tuzilib, taraflar imzolaganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Barcha o'zgartirish, qo'shimchalar va ilovalar mazkur shartnomaning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

8.3. Quyidagi asoslar yuzaga kelganida, Bank mazkur shartnomani muddatidan avval bekor qilishi va/yoki undiruvni garovdagi yoki boshqa mol-mulklarga qaratishi mumkin:

- a) Shartnoma tuzishda yoki qarz operatsiyalarini bajarishda Qarz oluvchi tomonidan Bankka noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish faktlari aniqlanganda;
- b) Qarz oluvchi/BQOning psixo-nevrologik, psixiatrik, giyohvandlik va alkogolizmdan davolash joylarida hisobga olinishi to'g'risida ma'lumot bo'lgan taqdirda yoki tugallanmagan sudlanganlik (sudning hukmi bilan jazo tayinlanganlik holati);
- c) qaytarish jadvalini kamida uch va undan ortiq marotaba buzgan taqdirda;
- d) qarz va unga hisoblangan foizlarni qaytarish jadvalida belgilangan muddatdan 30 kun va undan ortiq muddatga kechiktirilganida;
- e) Mazkur shartnomaning 3.1-bobida belgilangan Qarz oluvchining majburiyatlarining hech bo'lmaganda bittasi bajarilmaganida;
- f) Qarz oluvchi/BQO garovga olingan transport vositasini monitoring qilinishiga to'sqinlik qilganida, uni yashirganida, Bankka taqdim qilmaganida;
- g) Qarz oluvchi garovga olingan transport vositasini Bankning rozilgisiz uchinchi shaxslarga boshqarishga, ijaraga, tekin foydalanishga, boshqa har qanday asoslarga ko'ra bersa, shuningdek, noqonuniy ravishda tasarruf etsa;
- h) Bank tomonidan yuqoridagi asoslarga ko'ra, kreditni muddatidan oldin to'liq qaytarish talabi asosida undiruvni qarzdor xisobidan va kredit ta'minotiga qaratish yuzasidan tegishli sudga ariza/da'vo ariza bilan murojaat qilingan hollarda, sud muhokamalari qadar yoki sud muhokamalari jarayonida qarzdor tomonidan muddati o'tgan kredit qarzni to'lab

qo‘yishligi da’vogar (bank) tomonidan da’voni qaytarib olishga yoki da’vodan voz kechishga asos bo‘lmaydi;

- i) Qonunchilikda belgilangan boshqa asoslarga ko‘ra.

9. Maxfiylik

9.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida taraflar bir-biridan olgan barcha ma’lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

9.2. Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog‘ida boshqa tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma’lumotlarni axborot egasining yozma roziligesiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

9.3. Mazkur talab butun shartnomaga muddatida hamda shartnomaga muddati tugaganidan so‘ng 3 yil amal qiladi.

10. Alohiba shartlar, kafolatlar va bildirishlar

10.1. Mazkur shartnomani imzolash bilan Qarz oluvchi Bankka uning shaxsiy ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishslash, saqlash va undan foydalanishga quyidagi hollarda rozilik beradi: Qarz oluvchi manfaatdor bo‘lgan shartnomalarini tuzishda va ijrosini ta’minlashda; Qarz oluvchining shartnomada belgilangan huquqlari va majburiyat-larining bajarilishini ta’minlashda, ularning bajarilishini talab qilish va qarzdorlikni undirishda; ma’lumotlarni tekshirish, shu jumladan firibgarlik holatlarining oldini olish maqsadida; Shartnomaning ijrosini ta’minlash bilan bog‘liq ma’lumotlarni Qarz oluvchi/BQOga yetkazishda.

10.2. Qarz oluvchi/BQO to‘lov jadvali asosida qarz bo‘yicha telefon qo‘ng‘iroqlari qilinishiga, SMS-xabarnomalarini uyali telefon raqamlariga, shuningdek Qarz oluvchi bergan boshqa yashash manzillarga yuborilishiga rozilik beradi.

10.3. Bank yuborgan SMS xabarnomalar, ogohlantirish xatlari, qilingan qo‘ng‘iroqlar va boshqalar sud va boshqa organlarda dalil bo‘lib xizmat qiladi.

10.4. Ushbu bilan Qarz oluvchi Garov reyestriga kredit hisobiga sotib olinayotgan transport vositasi bo‘yicha Bank tomonidan yozuv kiritishga o‘z roziligini bildiradi _____ imzo

10.5. Qarz oluvchi bank tomonidan Qarz oluvchining uning shaxsga doir ma’lumotlarini ishlov berishga roziligini bildiradi va ushbu rozilik O‘zbekiston Respublikasi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan Qarz oluvchi tomonidan uning shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berish hamda mazkur shartnomaga yuzasidan vujudga keladigan har qanday munosabatlar bo‘yicha har qanday uchinchi shaxslarga shaxsga doir ma’lumotlarni uzatish uchun yozma roziliği sifatida tan olish;

10.6. Ushbu bilan Qarz oluvchi Kreditorga 20____ yil _____ kungi №_____ -sonli shartnomaga asosan yetkazib berilishi kerak bo‘lgan avtotransport vositasi haqida ma’lumotni jumladan cheklanmagan holda ishlab chiqaruvchi korxona yoki rasmiy dillerining yoki realizatsiya qiluvchi korxona, tashkilot yoki har qanday uchinchi shaxslardan olishiga chaqirib olinmaydigan, shartsiz rozilik bildiradi._____ imzo

10.7. Ushbu bilan Qarz oluvchi o‘zining har qanday joriy va muddati o‘tgan majburiyatlarini (qarzlarini) to‘lash uchun mablag‘larni (qonunchilik hujjalari muvofiq undirib bo‘lmaydigan pul mablag‘lari bundan mustasno) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga muvofiq qarz oluvchining roziligesiz (akseptsiz tartibda) quyidagicha hisobdan chiqarish/undirib olish/talab qilishga rozilik bildiradi:

a) Qarz oluvchining har qanday banklarda va boshqa moliya muassasalaridagi hisobvaraqlariga(bank kartalariga) akseptsiz to‘lov talablarini qo‘yish;

b) Qarz oluvchining har qanday tijorat banklaridagi va/yoki alohiba bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi tashkilotlaridagi (bank kartasini) bank hisobvaraqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri debetlash yo‘li bilan.Qarz oluvchi bilan aloqa bog‘lash usuli: mazkur shartnomaning 14- bobida ko‘rsatib o‘tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda mijozning yuridik manzili_____, telefon raqami:_____ (vakilning uyali aloqa raqami).

10.8 Bank bilan aloqa bog‘lash usuli: mazkur shartnomaning 14- bobida ko‘rsatib o‘tilgan rekvizitlar, shu jumladan cheklanmagan holda 0 800 1 200 200 hamda 1256 (pullik) raqamlar.

10.9 Mijozga bank xizmatini taklif kilish maqsadida ushbu shartnomaning amal qilish muddati

davomida, shuningdek shartnoma muddati tugagandan so‘ng 3 yil mobaynida mijozning har qanday manbalardagi ma’lumotini olib qayta ishlagan holda taxlil o’tkazishga mijoz o‘z roziligini beradi.

11. Fors-major holatlari.

11.1. Yengib bo‘lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari - bu taraflarning irodasi, xohishiga bog‘liq bo‘lмаган табият ходисалари (зилзила, ко‘чки, бо‘рон ва хоказо), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal, davlat manfaatlarini ko‘zlab import va eksportni taqiqlash va boshqalar), xalqaro, banklararo va Bankning elektron to‘lov hamda ta’minot tizimidagi nosozlik, Bankning dasturiy ta’minot tizimiga qilingan tahdid (xujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda taraflarga majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

11.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtida taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdan ozod bo‘ladi. Fors-major holati 90 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda shartnoma bekor qilinishi mumkin.

11.3. Fors-major holatlari boshlanganligi yoki yakunlanganligi haqida bir taraf ikkinchi tarafni 3 ish kuni ichida bu haqda yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarnomalar barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish

12.1. Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilar ushbu shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tarafning qaror qabul qilishiga ta’sir o’tkazishi uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag‘lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi taqiqlanadi. Ana shunday taklif bildirilganida, ikkinchi taraf, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilar bunday takliflarni rad qilishi shart.

12.2. Agar shartnoma ishtirokchilaridan birida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog‘liq korruption harakat sodir etilganligi to‘g‘risida ma’lumot, shubha, dalilga ega bo‘lsa, bu to‘g‘risida ikkinchi tarafga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

12.3. Xabarni olgan taraf haqiqatda korruption harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to‘g‘risida tasdiqqa ega bo‘lguncha ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishni to‘xtatib turish huquqiga ega.

12.4. Pora evaziga ikkinchi taraf vakilini, affillangan shaxsini, xodimini yoki shartnomaning boshqa ishtirokchilarini shartnoma shartlarini bajarishda o‘ziga og‘dirib olgan taraf ikkinchi tarafga yetkazilgan zararlarni qoplab berish majburiyatini oladi.

13. Nizolarni hal etish tartibi va boshqa shartlar

13.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo‘li bilan hal etadilar. O‘zaro kelishuv imkoniyati bo‘lмаганда, huquqi buzilgan taraf yuborgan talabnama yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi taraf mazkur hujjatda ko‘rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim. Talabnama yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirilishi, elektron pochta manziliga yoki pochta aloqa xizmati orqali yuborilishi mumkin.

13.2. Barcha nizolar bank tarmog‘i joylashgan hududdagi sudda hal etiladi.

13.3. Mazkur shartnoma va uning ilovasi bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzilib, shartnomaning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Qarz oluvchida saqlanadi.

14. Taraflarning tasdig‘i, manzillari, to‘lov rekvizitlari va imzolari.

Qarz oluvchi/BQO qarz bo‘yicha barcha ma’lumotlar shartnoma tuzilishidan avval unga bepul taqdim etilgani va ushbu shartnoma imzolanmasidan oldin tanishib chiqish uchun o‘zi bilan olib ketishi mumkinligi haqida ogohlantirilganini tasdiqlaydi.

Qarz oluvchi

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat:

_____ Qarz oluvchi

Birgalikda qarz oluvchi

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat:

_____ BQO

_____ Bank

_____ yilda
 _____ II Bda berilgan
 fuqaro: _____

(imzo)

_____ yilda
 _____ II Bda berilgan
 fuqaro: _____

(imzo)

Bank

X.r: **16103000500000083001**,
 MFO: **00083**,
 INN: **200242936**
 Boshqaruvchi _____

(imzo)

www.hamkorbank.uz

Tel: **0-800-1-200-200**

Hurmatli qarz oluvchi! Oarz va unga hisoblangan foizlar o‘z vagtida to‘lanmagan taqdirda Sizning kredit tarixingizda majburiyatlar o‘z vagtida bajarilmaganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar shakllanadi va bu esa o‘z navbatida kelgusida kredit tashkilotlaridan kredit olish imkoniyatingizni pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Sharhnomalar mazmuni va mohiyati bilan to‘liq tanishib chiqdim hamda bir nusxasini oldim.

_____ “ ____ ” 20 ____ yil
 (imzo) (FISh) _____ “ ____ ” 20 ____ yil
 (imzo) (FISh)

1-ilova

_____ kungi imzolangan № _____ - sonli qarz sharhnomasi bo‘yicha
 qarz va foizlarni **qaytarish jadvali**

№	To‘lov kuni	Muddati o‘tadigan kun	Asosiy qarz to‘lov summasi	Hisoblangan foizning kaytarilish summasi	Jami to‘lov	Sundirilgungacha qarz qoldig‘i summasi	Sundirilgandan keyingi qarz qoldig‘i summasi
1							
2							

Ushbu qaytarish jadvalida ko‘rsatib o‘tilgan muddatlarda to‘lovlarni amalga oshirish majburiyati olaman.

ID:

Parol:

MBXO/UBXO boshlig‘i

Kredit oluvchi

_____ (imzo)

_____ (imzo)

Kredit mutaxassis

_____ (imzo)

_____ yil

Qarz oluvchi

BQO

Bank

